



UO'K: 82.09

ASSOTSIIATIV SYUJET: GENEZESI, NAZARIY PARADIGMASI VA ADABIY TAHLILI**АССОЦИАТИВНЫЙ СЮЖЕТ: ГЕНЕЗИС, ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА И ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ****ASSOCIATIVE PLOT: GENESIS, THEORETICAL PARADIGM, AND LITERARY ANALYSIS****G'ulomov Doniyorbek Dilshodjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti v.b. dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada assotsiativ syujetning genezesi, assotsiatsiyaning psixologiya bilan o'zaro aloqasi, assotsiatsiyaning psixologiyadan boshqa sohalarga o'tish jarayoni o'rganilgan. Adabiyotshunoslikda syujetning asosiy tiplaridan biri bo'lgan assotsiativ syujet borasida olimlarning fikrlari, qarashlari tahlil qilingan. O'zbek adabiyotida syujet qurilishining assotsiativ tipi va uning funksiyalari U.Hamdanning "Ota" romani misolida tahlilga tortilgan.

Аннотация

В данной статье изучаются генезис ассоциативного сюжета, взаимодействие ассоциации с психологией, переход ассоциации из психологии в другие области. Проанализированы мнения и взгляды ученых относительно ассоциативного сюжета, который является одним из основных видов сюжета в литературоведении. Ассоциативный тип построения сюжета в узбекской литературе и его функции анализируются на примере романа У.Хамдама "Отец".

Abstract

This article studies the genesis of the associative plot, the interaction of association with psychology, and the transition of association from psychology to other areas. The opinions and views of scientists regarding the associative plot, which is one of the main types of plot in literary criticism, are analyzed. The associative type of plot construction in Uzbek literature and its functions are analyzed using the example of U. Hamdam's novel "Father".

Kalit so'zlar: psixologiya, assotsiatsiya, ong oqimi, syujet, assotsiativ syujet, his-tuyg'ular, kechinmalar, o'z-o'ziga murojaat, ichki monolog.

Ключевые слова: психология, ассоциация, поток сознания, сюжет, ассоциативный сюжет, чувства, переживания, самореференция, внутренний монолог.

Key words: psychology, association, stream of consciousness, plot, associative plot, feelings, experiences, self-reference, internal monologue.

KIRISH

Manbalarda keltirilishicha, assotsiatsiya (*lotincha association – qo'shish, biriktirish*[1]) termini ilmiy muomalaga 1690-yilda J.Lokk tomonidan kiritilgan. U o'z davrida mashhur filosof, pedagog va empirizm va liberalizm vakili sifatida tanilgan. J.Lokk qadimgi dunyo falsafasida buyuk mutafakkirlar Aristotel va Platon tomonidan ilgari surilgan g'oyalar assotsiatsiyasini targ'ib qilgan. Aristotel va Platon yodga tushirish jarayonini assotsiatsiyaning mexanizmi sifatida tushunishgan. J.Lokk buyuk allomalarning bu qarashlarini rivojlantirib, o'z ishlarida psixik elementlarni bog'lovchi aloqaga nisbatan *assotsiatsiya* terminini ishlatgan. J.Lokk fikricha, insonda biron g'oyaning hosil bo'lish jarayonida assotsiatsiya asosida boshqa g'oyalarning tasodifiy, erkin bog'lanishi ro'y beradi[2, 627]. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, assotsianizm turli fanlar doirasida keng o'rganildi, jumladan, tibbiyot, siyosat, axloq, tarbiya masalalari yechimida ham assotsianizm g'oyalariga murojaat qilindi. XX asrning 20-yillariga kelib assotsianizm o'zining so'nggi bosqichini bosib o'tdi.

Umuman olganda, psixologiyada assotsiatsiya ikki va undan ortiq psixik tuzilmalarning o'zaro aloqasini ifoda etuvchi hodisa sifatida tushunildi. "Ongda ikki tasavvurning hosil bo'lishi va ular o'rtasida aloqaning shakllanishi uchun birlamchi va zaruriy shart sifatida bir vaqtlilik (yoki ketma-ketlik) ko'rsatildi"[3].

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR

“Ong oqimi” tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur atama ilk marta amerikalik ruhshunos Uilyam Jeyms (1842-1910-y) ning “Psixologiya asoslari” nomli tadqiqotida uchraydi[4, 16]. Ong oqimining jahon adabiyotida adabiy yo‘nalish sifatida paydo bo‘lishi XX asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Mazkur adabiy yo‘nalishning dastlabki namunasi Jeyms Joysning “Uliss” romani hisoblanadi. “Uliss” romani ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan. Roman katta hajmli bo‘lib, “unda qahramonlar o‘z ong oqimiga o‘zligini topshiradi: o‘tmishi, buguni, ertasi, hayoti, odamlar, umuman, hamma narsa haqidagi o‘y-fikrlari birin-ketin tasvirlanaveradi. U yerda ketma-ketlik, izchillik yo‘q. Asar voqealari ana shu oqimdan bino bo‘ladi, ularda xronologik tartib, ko‘nikilgan mantiq intizomi buzilgan”. Ma‘lumotlarga ko‘ra, “Uliss” romanida qahramonlardan birining xayoli roman umumiy hajmining 45 sahifasini tashkil etgan. Qahramon o‘y-xayoli, kechinmalari hech bir vergulsiz, nuqtasiz davom etadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, romanning mazmun-mohiyati, undagi badiiylik va umumiy g‘oya ruhiy kechinmalar, o‘y-xayollar orqali ochib berilgan.

Zero, “ong oqimi” ning ildizi dunyoda yaratilgan ilk rivoyat, asotir-miflarga borib bog‘lanadi. Odam alayhissalomning o‘g‘illari Hobil va Qobilning fojiasi, ularning istig‘fori, tavba-tazarrusi, iztiroblari hali-hanuz ong oqimining teran tomirlarida oqib kelmoqda[5]. T.Jo‘rayev yana bir o‘rinda Jeyms Joysning mashhur “Uliss” asari dunyoda yagona, hech bir badiiy asarga o‘xshamagan, falsafiy-psixologiya asar ekanligini ta‘kidlab o‘tadi[6, 4]. Shuningdek, “Uliss”ga modernizm, syurralizm, ekzistentsializm, freydcha psixoanaliz uslubi namunasi, “tafakkur oqimi” yo‘nalishidagi roman, XX asr subyektiv idealistik dunyoqarashi namunasi kabi ta‘riflar ham berilgan.

T.Jo‘rayev fikriga asoslanib aytadigan bo‘lsak, “ong oqimi” yo‘nalishida yozilgan asar shakli va uslubi aksari hollarda assotsiativ syujetni talab etadi va u asosiy syujet turiga aylanadi. Demak, endi boshqa nazariyotchi olimlarning assotsiativ syujetga bergan ta‘riflariga, u xususidagi fikrlari, qarashlariga to‘xtalsak.

Adabiyotshunoslikda yana shunday turdagi syujetlar borki, ulardagi syujet qurilish uslubi boshqa turdagi syujetlardan tubdan farq qiladi (ya‘ni asosiy syujet tiplari: xronikali, retrospektiv, konsentrik syujetlardan). Assotsiativ syujet turida voqealar xayollar, tasavvurlar oqimi sifatida beriladi. Nazariyotchi olim A.Rahimov ta‘biri bilan aytganda, “voqealar tashqi olamdan muallif yoki qahramonning ichki ruhiy dunyosiga ko‘chirilgan bo‘ladi”[7, 20]. Zero, bunday turdagi syujetlarda dastlab bir qarashda voqealar biri ikkinchisiga bog‘lanmaganday taassurot uyg‘otadi, aslida esa ana shunday “sochilib yotgan”, bir-biriga mazmunan bog‘lanmaganday ko‘ringan manzaralar, obrazlar, voqea-hodisalar ichki bir yaxlitlik asosida birlikni tashkil etadi, ya‘ni asardagi jipslikni, tasvirdagi umumiylikni ta‘minlaydi. Shu o‘rinda yana bir adabiyotshunos olim T.Boboyev ham syujet tiplarini tasniflarkan ekan, assotsiativ syujet haqida quyidagicha fikr bildiradi: “syujetni voqea-hodisalar silsilasi emas, balki qahramonlar qalbida kechgan ruhiy po‘rtanalar tashkil etadi”[8, 124]. E.Xudoyberdiyev qarashlariga ko‘ra assotsiativ syujet – “obyektiv tasvir bilan subyektiv histuyg‘ular, xotiralar, tasavvurlar ham aks ettiriladigan, psixologizmga tayangan syujetdir”[9, 60-65].

Adabiyotshunos V.Kojanov aytganidek, “syujet – odamlar va personajlarning ichki va tashqi harakati izchilligi ekan”. Biz “ichki harakat izchilligi” deganda assotsiativ syujetni tushunishimiz lozim. Demak, assotsiativ syujet – ichki tuyg‘u, kechinmalar asosiga quriladi, ularda qahramon qalbidagi kechinmalar, o‘y-xayollar, ruhiy o‘zgarishlar doim yetakchi o‘rinda turadi. Bugungi kunga qadar yaratilgan romanlar ichida assotsiativ syujet yetakchilik qiluvchilari ham ko‘p sonni tashkil etadi. Ularga quyidagi o‘zbek va jahon adabiyotining mashhur romanlarini misol qilib keltirishimiz mumkin: Oybekning “Bolalik”, A.Muxtorning “Davr mening taqdirimda” O.Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, “Diyonat”, M.M.Do‘stning “Lolazor”, O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, M.Mansurovning “Mangu jang”, U.Hamdani “Muvozanat” va “Ota” romanlari, shuningdek, jahon adabiyotidan M.Prustning “Yo‘qotilgan vaqtni izlab”, J.Joysning “Uliss”, G.G.Markesning “Yuz yil tanholikda”, M.Gorkiyning “Klim Samginning hayoti”, T.Manning “Doktor Faustus”, Ch.Aytmatovning “Alvido, Gulsari”, N.Dumbadzening “Abadiyat qonuni”, R.Hamzatovning “Mening Dog‘istonim” romanlari.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma‘lumki, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani assotsiativ syujet asosiga qurilgan romanlardan biri hisoblanadi. Romandagi voqea-hodisalar qahramon o‘y-xayollari orqali mushohada qilinadi va bunday turdagi syujetlarda ichki monologga ko‘proq o‘rin ajratiladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Romanda uchragan ichki monologlarning ko'p qismi asar bosh qahramoni Po'latga tegishli bo'lib, asar voqeligi davomida buning bevosita guvohi bo'lamiz. Masalan:

“– A? – hushiga keldi Po'lat, bilmasam, O'ktam aka, bilmasam...Po'lat o'rnidan turdi-yu xayr-ma'zurniyam nasiya qilib bekat tomon odimladi. “Hay-yov bu qanaqasi bo'ldi, Erboy! Sen nomard nega bunday ish tutding, nima xusumating bor edi menda? Xo'p, Yog'duni men olib ketibman. Axir bunga ming yil bo'ldi-ku, ablah? Yana qachon, qayerda arpani xom urdim? Bir-birimizni yoqtirmasligimiz bu – bir-birimizga butun umr dushmanlik qilishimiz kerak degani emas. Dunyoda qanchadan qancha bir-birlarini iqi suymaydigan odamlar bor, lekin ular sen qilgan ishni qilishmaydi-ku! Nima qilganing bu... Uyimga o't qo'yganingdan ko'ra kelib meni o'ldirib ketsang, yaxshiroq emasmi?”[10, 110-111]

Bu o'rinda qo'shni O'ktam aka bilan bo'lgan suhbatdan so'ng Po'latning ko'nglida Erboyga nisbatan paydo bo'lgan shubha, ayni vaziyatda undagi adolatsizlik, nafrat tuyg'ulari Po'latning ichki monologi orqali bizga yetkazib berilmoqda. Zero, voqealarning shunchaki hikoya qilib qo'yilishidan ko'ra ularning qahramon ichki kechinmalari orqali ifoda etilishi ayni o'sha vaziyatni to'la va aniq holda tushunishga yordam bergan.

Quyida yana “Ota” romanidan olingan parchalar orqali “ong oqimi”ning ichki monologlarda qay shaklda namoyon bo'lishi va undagi ifoda etilayotgan voqeliklar asar umumiy syujetiga qay darajada o'z ta'sirini o'tkazishi va uning, umuman olganda, assotsiativ syujetning hosil qilishdagi ahamiyati o'rganilgan. Masalan: “... ochlik va sovuqning iztirobi o'zining haddi a'losiga yetganda Po'lat o'ylay boshladi: Dushman o'zi kim? O'rmonni to'rt yoqdan o'rab olgan, yaxshi kiyingan, yaxshi qurollangan, yaxshi boqilgan ikki oyoqli yovmi yoki menmi, Nikitami, anavi uchovlonni ichdan kemirayotgan, yemirayotgan ochlik, sovuq, chorasizlikmi? Qaysi biri ko'roq dushman bo'ldi ekan?... Qaysi bizlarni tezroq o'ldiradiz?... Tezroq o'ldirgani yaxshiroq dushmani sekinroq o'ldirgani?... Qiziq?...”[10, 40-41]

Navbatdagi parcha:

“Bu gaplarni domla aytyaptimi? Mahallaningina emas, butun rayonning bosh imomi aytyaptimi? Nahotki?!... Nahotki, din nevaramga qarshi bo'lmasa? Unda odamlar nega qarshi bo'ldi? Nima, ular boshqa dindandmi?... Suf-e senga, xomkalla, Po'lat! Hali sen odamlarning gap-so'zlarini din deb, dinni esa odamlarning kayfiyati, deb yuribsanmi? Shu yoshga kirib ham-a! Omilik ham evi bilan-da! Buni qara: din qarshi emas ekan-ku! Voy o'zim o'rgilay, bolamni bag'rimga olishimga din qarshi emaskan! Qarshi emaskan, qarshi emaskan!... Mana, o'qimaganni oqibati Po'lat! Mana, johillik!... Dunyo ko'rdim, hayot ko'rdim deb yuravergan ekansan gerdaiyb. Mana endi o'qimaganing pand berib o'tiribdi. Hay attang, attang... shuncha umr, shuncha ko'z yosh”[10, 199].

Va so'nggida Po'latning Yaratganga murojaati: “Ey Yaratgan Egam! Menga bergan hayotingning ham xuddi qizim Sevinchniki kabi ikki yuzi bor ekan; bittasi g'oyat go'zal, sevimli bo'lsa, ikkinchisi esa yana o'sha qizimning olovda kuyib, badbashara holga kelgan, shu tufayli sevimsiz, hatto qo'rqinchli bo'lib qolgan yuzidek kishini o'zidan itarar, uni dahshatga solar ekan. Lekin u mening o'z qizim, ona qizim, pushti kamarimdan bo'lgan yakka-yu yagonam, dilbandim edi! Shunday bo'lgach, men uning o'sha xunuk, o'sha qo'rqinchli yuzini ham chiroyli yuz kabi yaxshi ko'raveraman... O'ylab qaragam, menga bularning bari xuddi Sen menga, ayolim Yog'duga, qizim Sevinchga, sinfdoshim Erboyga... hamma-hammamizning peshonamizga bitgan yozug'ingga chunonam o'xshar ekan. U qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bizniki, o'zimizniki ekan. Endi menga qismatimning ikki beti ham xuddi qizimniki kabi birdek qadrdon: chiroylisi ham, xunugi ham!”[10, 203-204]

Yuqorida berilgan misollardan ko'rinib turibdiki, parchalarni o'qish davomida biz Po'latning ichki iztiroblari bilan, ichki pushaymonlari bilan, boshqacha qilib aytganda, Po'latning botiniy olami, qalb kechinmalari bilan tanho qolamiz. Yuqoridagi lavhalarda Po'lat o'z dardi bilan, o'z g'ami bilan, shuningdek, o'zi baho berayotgan personaj bilan bog'liq o'y-xayollari, muammolari bilan birga tasvirlanadi. Po'latning Erboy haqidagi o'ylari, Erboyga nisbatan ko'glida paydo bo'lgan g'azab-nafrati, urush va dushman borasidagi fikrlari, nevarasining kelajagi, taqdiri haqida qayg'urishlari, bu borada O'lmas domla (imom)ning fikrlariga ichki munosabati uning ongida kechayotgan kechinmalar bo'lib, buni muallif bevosita Po'latning ichki monologi orqali ifoda etgan. Bu kabi misollarni romandan yana ko'plab keltirishimiz mumkin. Lekin hozir yuqorida keltirganimiz, so'nggi parchaga e'tibor bersak. Mazkur parchada berilgan monolog Po'lat otaning asar so'nggidagi ichki

monologi hisoblanadi, asar shu monolog bilan yakunlanadi. Ota 7 yil qamoqda o'tirgan bo'lsa-da, bir zumgina bo'lsin qilgan ishlaridan afsuslanmadi. Roman so'nggida esa Po'lat O'lmas ota (imom)ning gapini hamda qizi Sevinchning Fakil og'a bilan nikohi borligini eshitganidan keyingi holatini, otaning umri so'ngidagi iqornomasini, Yaratganga murojaatini ko'ramiz. Po'lat so'nggi nuqtada Allohni yod etyapti, U bilan suhbat qilishga kirishyapti, gunohlarini, xato-kamchiliklarini tan olib, Undan afv so'rayapti, tavba qilyapti. Zero, "o'z-o'ziga murojaat o'z xatolarini ko'ra olgan, tan olgan onlarda paydo bo'ladi"[11, 28].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, assotsiativ syujetda asar qahramonlarining ichki kechinmalari, botiniy olamidagi ruhiy o'zgarishlari aks etadi. Bunday turdagi syujetlarda qahramon o'y-xayollari ma'lum maqsadga yo'nalgan bo'ladi, ya'ni qahramon ongida o'z-o'ziga murojaat, o'z-o'zini ogohlantirish, pushaymonlik, o'zini va boshqalarni oqlash, qoralash kabi bir qator "chaqiriqlar" yetakchilik qiladi. Qahramon ongidagi bunday "chaqiriqlar"ni to'la anglash, ularni tushunish uchun ichki monolog yordamga keladi, u bizga bu yo'lda "ko'priq" vazifasini o'taydi, aniqrog'i, biz ichki monolog orqali qahramonning ichki olamiga kira olamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy/1789.http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy/1789.
2. Локк Ж. Опыт о человеческом разумении. В 4-х томах. (Перевод с англ. А.Н.Савина). – М.: Мысль, 1985. – 621 с.
3. <http://davaiknam.ru/text/g-a-martinovich-verbalenie-associacii-v-associativnom-eksperim-page-5>
4. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernism. – Toshkent: Akademyashr, 2020. – 207 b.
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/tilavoldi-jo-rayev-modern-bizga-begona-emas-biroq-u-yagona-yo-nalish-ham-emas>
6. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2009. № 24, – Б.4.
7. Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона, 2015. –94 б.
8. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –560 б.
9. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 368 б.
10. Улуғбек Ҳамдам Ота. – Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2022. – 206 б.
11. Раҳимов З. "Кўҳна дунё" романи поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2005. – 137 б.